

“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDA TAVHID HAMDINING QO‘LYOZMA VA NASHRDAGI TAFOVUTLARI

Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

10.00.10-Matnshunoslik va adabiy

manbashunoslik tayanch doktranti

tursunaliyevamuslima97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarining tavhid hamd qismiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning qo‘lyozma va nashrlari solishtirib o‘rganilgan. Qo‘lyozma va nashrdagi tafovutlar berib o‘tilgan va sharhlangan.

Kalit so‘zlar: “Firdavs ul-iqbol”, qo‘lyozma, hamd, nashr, matn, tavhid.

Аннотация: Данная статья посвящена таухид-хамдной части произведения Огахи «Фирдавс уль-Икбал» и сравниваются его рукописи и издания. Были представлены и прокомментированы различия между рукописью и публикацией.

Ключевые слова: «Фирдавс уль-Икбал», рукопись, хвала, публикация, текст, таухид.

Abstract: This article is devoted to the monotheistic praise section of Ogahi's "Firdaws ul-iqbal", and its manuscripts and editions are studied in comparison. The differences in the manuscripts and editions are given and commented on.

Keywords: "Firdaws ul-iqbal", manuscript, praise, edition, text, monotheism.

“Firdavs ul-iqbol” asarining O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida¹ bir qancha qo‘lyozmalari bor bo‘lib, nashrlari ham chiqqan. Bizning ishimizga predmeti bo‘lgan hamd qismi esa 2023- yildagi asarning qayta nashrida chiqarilgan. Biz avvalo qo‘lyozmalarda hamd qismidagi so‘zlar orasidagi tafovutlarni o‘rganamiz, so‘ng esa matnni nashr qismi bilan solishtirib chiqamiz.

Asarda tavhid hamd va munojot qismlari ajratib berilgan bo‘lib, avvalo tavhid hamdining berilishi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Tavhid hamdlarini matnshunoslik nuqtayi nazardan qo‘lyozma va nashr solishtirilganda quyidagi holatlarni uchratish mumkin:

اول پادشاه علی الاطلاق قوللوقی بیلہ انتظام تاپار کیم²

.....ul podshohi alalitloqning qullug‘i bilan intizom toparkim³...

قادره کیم قدرت کاملسی بیلہ عدم دریای بیکرانیدین جواهر وجودکیم⁴

Qodirekim, qudrati komilasi bila adami daryoyi bekaronidin javohiri vujudkim,...⁵

¹ O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. 821/1, 5364/1, 9979/1, 5071, 7422, H. Sulaymonov nomidagi fond. 275/1)

² O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2A-b.

³ Фирдавс ул-икбол. Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий/асарлар/2-жилд.-Т.: “Sharq”, 2023. b.33

⁴ O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2A-b.

⁵ Фирдавс ул-икбол. Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий/асарлар/2-жилд.-Т.: “Sharq”, 2023. b.34

Asarning nashrdagi matnida “qullug‘i” so‘zi nashrida shunday berilgan, ammo qo‘lyozmalarda ushbu so‘z “قوللوقى” (“qulluqi”) qulluqi singari uchraydi. على الاطلاق (“alalitloq”) so‘zi nashrda “alalitloqning” deb berilgan. بيله so‘zi asarda goh “bilan”, goh “bila” shakli bilan ikki xillikni kasb etgan.

عليمكان سلطان لار نينگ دبدبي حشمتى و گردن توان خاقان لار نينگ كوكبى دولتى اول پادشاه على الاطلاق قوللوقى بيلي انتظام تاپار كيم⁶

Oliymakon sultonlarning dabdabai xashamati va garduntavon xoqonlarning kavkabai davlati ul podshohi alalitloqning qullug‘i bilan intizom toparkim⁷...

Yoinki, nashr matnida “muhaqqardur” so‘zi inv.5364 raqamli qo‘lyozma bilan bir xil, ammo inv.821 raqamlida bu so‘z محقر دورور (muhaqqardurur) shaklida kelgan, ya’ni nashrda “nosuftadur” so‘zi inv.5364 raqamli qo‘lyozma bilan bir xil ammo inv.821 raqamlida bu so‘z ناسفتدورور (nosuftadurur) shaklida kelgan, yana bunga misol “muarrodur” nashr va inv.5364 qo‘lyozma kelgan bo‘lsa, 821 qo‘lyozmada معرادرور (muarrodurur) shaklida kelgan, ya’ni:

عالم ناسوت آنينگ بارگاه سلطنتى اليدا بير قضاى محقر دورور و فضاى ملكوت درگاهى عظمتى دين بير صحن مقصر حدوث قدم اكى گوهر ناسفتى دورور ارادتى عمانيدين وجود عدم اكى غنچ نوشكفته صنعتى گلستانيدين⁸

.....olami nosut aning borgohi saltanati ollida bir qazoi muhaqqardur va fazoi malakut dargohi azamatidin bir sahn mukassar.

Hudusu qidam ikki gavhari irodati ummonidin, vujudu adam ikki g‘unchai navshukufta san‘ati gulistonidin⁹.

Nashrda “lik” qo‘shimchasi aslida qo‘lyozmada “lig” shaklida kelgan:

اطراف و اكناف ربع مسكون تصرفى بيله آلارنينگ لوادولتيع سرافرازليغ تيكوردى.¹⁰

Atrof va aknofi rub‘i maskun tasarrufi bila alarning livoi davlatig‘a sarafrozlik yetkurdi¹¹.

Nashr qismida qo‘lyozmada “durur” shaklida kelgan qo‘shimcha, nasriy qismda “dur” shaklida qo‘llanilsa, nazmiy qismda o‘z holatida qoldirilgan, bu ham matn tabdilida ikki xillik kasb etadi.

غرض مونچ منصوعات و مخلوقات اظهاريدين جمال ظهور يغ مظاهر تيلاماك دورور كيفيت عشق ماهيت حسن نى ظاهر ايستاماك¹²

Arzi muncha masnu‘ot va maxluqot izhoridin jamol zuhuriga mazohir tilamakdur, kayfiyati ishq va mohiyati husnni zohir istamak¹³.

اگر عشق اگر حسن ظاهر دورور

⁶ O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2A-b.

⁷ Фирдавс ул-иқбол. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: “Sharq”, 2023. b.33

⁸ O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2A-b.

⁹ Фирдавс ул-иқбол. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: “Sharq”, 2023. b.33

¹⁰ O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2A-b.

¹¹ Фирдавс ул-иқбол. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: “Sharq”, 2023. b.36

¹² O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2A-b.

¹³ Фирдавс ул-иқбол. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: “Sharq”, 2023. b.37

غرض اوزى اشيا مظاهر دورور
يوق ايرس بو كيم اعتبارات ايرور
عدم دور بارى باقى اول ذات ايرور¹⁴
*Agar ishq, agar husn zohir durur,
G'araz – o'zi, ashyo - mazohir durur.
Yo 'q ersa bu kim e'tiborot erur,
Adamdur bori, boqiy ul zot erur*¹⁵.

Tavhid hamdlarida she'riy janrlardan ham keng foydalanilgan bo'lib, ularni nashr va qo'lyozmalarda solishtirilganda quyidagilar aniqlandi:

زهى صانعو كيم يم صنعى دا
فلك بير حباب نكون را يرور
نجوم قوياش نفتين آندا چكيب
تون كون الار دين نمودار ايرور¹⁶

*Zihi sonei kim, yammi sun 'ida,
Falak bir janob nigunsor erur.
Nujumu quyosh naqsin onda chekib,
Tunu kun alardin padidor erur*¹⁷.

Ushbu qit'aning ikki qatorida "hubob" so'zi nashrda "janob" shaklida, "nigunro" so'zi esa "nigunsor" shaklida tabdil qilinib ketilgan. To'rtinchi qatorda esa qo'lyozmalar orasida farqlar aniqlanib, "padidor" پديدار forsiy so'z bo'lib, "ravshan", "ko'rinadigan", "aniq" degan ma'nolarni ifodalab, asarda "ko'rinish" ma'nosida nashr qismida va inv. 9979 raqamli qo'lyozmada qo'llanilgan. Ammo asarning inv.raq. 5364 va 821raqamlarida نمودار "namudor" shaklida "taniqli" degan ma'noda qo'llangan.

Nashrda unli tovushlarni ifodalashda ham ikki xil ko'rish mumkin, aynan "o" tovushini ifodalovchi maddli alifni "a" shaklida berib ketilgan, bunda "Onga" so'zi "anga" shaklida ketilgan:

بيت
به مثالى كه بدايت يوق آنگا
به شريكى ك نهايت يوق آنگا¹⁸

*Bayt
Bemisoleki, bidoyat yo 'q anga,-*

¹⁴ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2B-b.

¹⁵ Фирдавс ул-икбол. Муҳаммад Ризо Эрнӣёзбек ўғли Оғаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: "Sharq", 2023.37-б.

¹⁶ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2B-b.

¹⁷ Фирдавс ул-икбол. Муҳаммад Ризо Эрнӣёзбек ўғли Оғаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: "Sharq", 2023.33-34-б.

¹⁸ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2A-b.

*Besharikeki, nihoyat yo 'q anga*¹⁹.

نجوم قویاش نقٹین آندا چکیب

تون کون الار دین نمودار ایرور²⁰

*Nujumu quyosh naqsin onda chekib,
Tunu kun alardin padidor erur*²¹.

Nashr qismida qo'lyozmadagi quyidagi so'z almashitib qo'yish ham uchragan:

یر اوزا توفراق بنای سستی نی تعمیر اتیب

اول بنا اوزرا فلک قصرنی گردان ایلادی²²

*Suv uza tufroq binon sustini ta'mir etib,
Ul bino uzra falak qasrini gardon ayladi*²³.

Ko'rinib turibdiki, qo'lyozmalarda "yer" so'zini nashrda "suv" so'zi bilan almashitib qo'yilgan, bu ma'no qirralariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Tahvid hamdlari Allohni vasf etish bo'lib, u yerni ham, falakni ham egasidur, ammo bu yerda "yer" so'zi "suv" tarzida berilmasligi kerak, sababi "suv" yerning bir qismidir.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, har bir asarni tabdili bilan nashrga taqdim etilyotganda albatta uning asliyat bilan qayta ko'rib chiqilishi yoinki boshqa bir mutahassisning nazaridan o'tkazish lozimdur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. 821/1, 5364/1, 9979/1, 5071, 7422, H. Sulaymonov nomidagi fond. 275/1

2. Фирдавс ул-икбол. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: "Sharq", 2023.

¹⁹ Фирдавс ул-икбол. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: "Sharq", 2023.34-б.

²⁰ O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2A-b.

²¹ Фирдавс ул-икбол. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: "Sharq", 2023.34-б.

²² O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 821/1. 2A-b.

²³ Фирдавс ул-икбол. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий/асарлар/2-жилд.-Т.: "Sharq", 2023.37-б.